

Jamoat xavfsizligi tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari va zamonaviy mexanizmlari

Tog‘ayeva Dilnoza
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: (99) 843-70-47

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasining nazariy asoslari, uning jamiyat barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni hamda zamonaviy xavf-xatarlar sharoitida jamoat xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari tahlil etilgan. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy mexanizm, profilaktika, xavfsizlik siyosati.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida jamoat xavfsizligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Jamoat xavfsizligi jamiyatda tinchlik, osoyishtalik va huquq-tartibotni ta‘minlash orqali fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu tushuncha ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida: xavfsizlik – bu xavf-xatarning yo‘qligi; xavf bo‘lmagan holat; xavfsizlikning ta‘minlanishi, - deyilgan [1]. Harbiy atamalar lug‘atida esa xavfsizlik – 1) xatar va tahdidlardan himoyalanganlik holati; 2) obyekt, holat va jarayonlarga boshqa obyekt, holat va jarayonlar salbiy ta‘sir ko‘rsatganda, o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi; 3) obyektning shunday holatiki, bunda unga katta ziyon yoki zarar yetkazib bo‘lmaydi; 4) obyektning barqaror rivojlanish holati, bunda obyektning hayotiy faoliyati xususiyatlarida qandaydir kutilmagan o‘zgarishlar ehtimoli uncha katta bo‘lmaydi; 5) obyektning boshqa obyektlarga katta ziyon yetkazmaydigan xususiyati, - deya ta‘riflar keltirilgan [2].

Xavfsizlik tushunchasining turlicha tasniflanishi – inson hayot faoliyatining ko‘plab obyektlari, jarayonlari va hodisalari hamda holatlariga nisbatan qo‘llanishi bilan izohlash mumkin. Xavfsizlik – shaxs (inson), jamiyat va davlatning aniq bir makonda (Yer yuzida) yashab qolishi uchun barcha sohalarda, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, texnik, harbiy va boshqa jarayonlarda ehtiyojlarining

qondirilishi uchun kerakli sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishi bilan bog‘liq. Xavfsizlikning uzluksiz ta‘minlanishi uchun aniq bir yoki bir nechta tizim yaratilgan yoki shakllangan bo‘lishi mumkin. Xavfsizlik tizimini shakllantirishdan maqsad: shaxs (inson), jamiyat va davlatning asosiy huquq va erkinliklari hamda fuqarolarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, texnik tizimlarning barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlashdan iborat. Xavfsizlik xalqaro va milliy xavfsizlikka: xalqaro xavfsizlik global va mintaqaviy xavfsizlikka; milliy xavfsizlik esa shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga bo‘linadi. Xavfsizlik tuzilmasida o‘zaro aloqador bo‘lgan bir qator tarkibiy qismlar mavjud. Bularga: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, axborot, ma‘naviy, ekologik va boshqa sohalarni kiritish mumkin. “Mamlakatning xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, axborot va boshqa omillar hamda tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltiriladi. Shu bois, xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g‘oyaviy, mafkuraviy, iqtisodiy, ekologik, axborot xavfsizligini o‘z ichiga oladi”[3].

Zamonaviy bosqichda xavfsizlik – iqtisodiy, axborot, harbiy, ekologik va boshqa sohalar hisobiga kengayishi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, nohukumat va transmilliy korporatsiyalar, milliy-ozodlik harakatlari, shu bilan birga, transmilliy tahdidlar vujudga kelgan sharoitda davlatning xavfsizlik sohasidagi an‘anaviy funksiyalarining zaiflashish jarayoni kuzatildi. Shu bois, xavfsizlik konsepsiyasiga an‘anaviy va keng ma‘noli yondashuvlar o‘z navbatida xavfsizlikning boshqa yo‘nalishlari qatorida “xavfsizlik” tushunchasini atroflicha tadqiq etish, ushbu tushunchaning metodologik asoslarini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. *Xavfsizlik* – shaxs (inson), jamiyat va davlat hayotining muhim manfaatlarini ham tashqi, ham ichki harbiy xavflardan himoyalanganlik darajasini anglatuvchi xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismidir. Bu atama hozirgi paytda atamashunoslarning nuqtayi nazarida quyidagicha keltiriladi: xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini tinchlik hamda urush davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, axborot va harbiy choralar komplekslari orqali harbiy sohada an‘anaviy va noan‘anaviy xarakterdagi ichki va tashqi tahdidlardan kafolatli himoyalanganlik holatidir [4]. Jumladan, xavfsizlik omillari masalasida bugungi kun taraqqiyotida jamoat xavfsizlik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat xavfsizligi jamiyat a‘zolarining hayoti, sog‘ligi, mulki va ijtimoiy qadriyatlariga tahdid soluvchi omillardan himoyalanganlik holati sifatida talqin etiladi. U nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurash, balki favqulodda vaziyatlar, ommaviy tartibsizliklar va terrorizm kabi

xavf-xatarlarning oldini olishni ham o'z ichiga oladi. Jamoat xavfsizligi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- huquqiy xavfsizlik;
- ijtimoiy xavfsizlik;
- axborot xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik.

“Tartib”, “xavfsizlik”, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalarining ahamiyati shundan iboratki, ular huquqni muhofaza qiluvchi bo‘lib, o‘z ma‘zmun-mohiyatiga ko‘ra birgalikda aholi bilan birga mamlakatning muhim belgilaridan biri hokimiyat va hududni tashkil qiladi. Amaliy nuqtayi nazardan, jamiyatda tartib va xavfsizlikning yo‘qligi davlatning tarkibiy inqirozidan dalolat beradi [5]. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslari konstitutsiyaviy normalar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ushbu hujjatlar davlat organlarining vakolatlarini aniqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash mexanizmlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Huquqiy mexanizmlar jamoat xavfsizligini ta‘minlashda profilaktik choralar, ma‘muriy va jinoiy javobgarlik institutlari orqali amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar rivoji jamoat xavfsizligini ta‘minlashda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-tahliliy platformalar huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, jamoatchilik bilan hamkorlik, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish jamoat xavfsizligini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligi jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Uni ta‘minlash kompleks yondashuvni, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni hamda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni talab etadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik jamoat xavfsizligini ta‘minlashning eng muhim omillaridan biridir. Yuqoridagi qarashlar bilan jamoat xavfsizligini keng talqin qilish xavfi mavjudligi, sababi “jamoat” atamasi o‘z mazmuniga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy sodir bo‘ladigan voqealarni butun majmuasini qamrab oladi. Bu tushuncha etimologiya nuqtai nazaridan to‘g‘riligi, ammo hozirgi davrda davlat xavfsizligini milliy xavfsizlik bilan bir xillashtirish mavjudligini inobatga olish muximdir. Jamoat xavfsizligi sohasiga oid tushunchalar, xavfsiz manbalari salbiy xususiyatlarining namoyon bo‘lishidan himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi, lekin shunga qaramasdan boshqacha yondashuvlar ham, nisbatan qamrovi jihatidan to‘liqroq tushunchalar mavjud.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. Jild 3. N - Tartibli / Mas'ul muharrir
2. A. Madvaliyev. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2020. – B. 373.
3. Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati / Alimov A.Yu. va boshq. – T.: "Innovasiya-Ziyo", 2020. – B. 109.
4. Abulqosimov, X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – T.: "Akademiya", 2006. – B. 10.
5. Otamatov M. Qisqacha geosiyosiy terminlar lug'ati. – T.: "O'R QK Akademiyasi", 2020. – B. 80. XDFU.
6. Белский К.С. Полицейское право: Лекс. курс / Под ред. А.В. Куракина. М.: Дело и сервис, 2004. С. 23.